

# O'zbekiston Qahramoni, navoiyshunos olima Suyuma G'aniyeva tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-adabiy anjuman o'tkazildi

O'zR FA Davlat adabiyot muzeyida O'zbekiston Qahramoni, navoiyshunos olima Suyuma G'aniyeva tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-adabiy anjuman o'tkazildi.

Tadbir O'zR Vazirlar Mahkamasining "Atoqli olimlar, madaniyat va san'at sohasi vakillarining yubiley sanalarini keng nishonlash hamda ular faoliyatini targ'ib etish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori doirasida tashkil etildi.





Anjumanda O'zR Fanlar akademiyasida faoliyat yuritayotgan yetakchi soha mutaxasislari, akademiklar va Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti olimlari ma'ruzalar qilishdi.